

**BADIIY ASARLARDA QUSH NOMLARI BILAN BOG'LIQ
ANTROPONIMLAR**

Safarova Hayitgul Turg'un qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy asarlarda uchraydigan qush nomlari asosida shakllangan antroponimlar, ularning semantik, uslubiy va ramziy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda qush nomlari bilan bog'liq antroponimlarning personaj xarakterini ochish, uning ichki dunyosi, ruhiy holati va jamiyatdagi o'rnini ifodalashdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot natijasida qush nomlari bilan bog'liq antroponimlar nafaqat nominativ birlik, balki muhim poetik vosita sifatida ham personajlar tizimini yaratish va badiiy matnning mazmuniy qatlamlarini boyitishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Mazkur izlanish antroponimika, lingvopoetika va badiiy matn tahlili yo'nalishlaridagi tadqiqotlar uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: antroponim, qush nomlari, badiiy asar, ramziylik.

Kirish

Ism – bu shaxsni individlardan ajratib turuvchi, uni jamiyatda identifikatsiya qiluvchi antroponomik birlik. Tilshunoslikda ismlar onomastika sohasida, xususan, antroponomika bo'limida o'rganiladi. Ismlar nafaqat nominativ vazifa bajaradi, balki ma'lum semantik, madaniy va ma'naviy yuklamani ham o'zida mujassam etadi. Jamiyatda farzandga ism qo'yish jarayoni muayyan an'ana va qadriyatlar bilan bog'liq holda shakllanadi. Odatda, ism orqali farzandga nisbatan ijobiy tilak, orzu va ma'naviy umid ifodalanadi. Masalan, kuch, go'zallik, poklik, sadoqat, erkinlik kabi sifatlar ism mazmunida mujassam bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ko'pgina xalqlarda ismning inson taqdiriga ta'siri bor yoki ism mazmunidagi xususiyatlar insonda aks etadi, deb ishonishadi. Ba'zan insonlar jonzotlardagi ayrim xususiyatlarga havas qilishadi va o'sha jonzot yoki qushlarning nomlarini farzandlariga ism sifatida qo'yish orqali o'sha xislatlarni ularda ko'rishni xohlashadi. Yoki inson umri davomida qaysidir fe'l-atvori tufayli unga insonlar shunday fe'l-atvorli hayvon yoki qush nomini laqab qilib qo'yishadi.

Shu o'rinda badiiy asarlardagi qahramonlar ismlari haqida ham gapirib o'tish joiz. Ijodkor ham biror badiiy asar yozayotganda, avvalo, qahramonlarga xuddi inson o'z farzandiga har tomonlama o'ylab ism tanlagani kabi ism yoki laqab tanlaydi. U tanlagan nom o'sha qahramon xarakteriga mos bo'lishi, jarangdor va eshitganda tinglovchiga qandaydir belgi berishi kerak bo'ladi.

Metodologiya



Bilamizki, qushlar orasida qaldirg'och insonlarga yaqin do'st hisoblanadi va ularning uylariga bemalol kirib, bola ochib, yashay oladi. Shuningdek, u shodlik va xushxabar elchisi, insonlarga faqat yaxshilik sog'inuvchi qush, deb ishoniladi. Hattoki xalq orasida u odamzod hayotini qutqarib qolgani haqida afsona va rivoyatlar ham bor. Endi "Alpomish" dostonidagi Alpomishning egizak singlisi bo'lgan Qaldirg'och obrazi haqida to'xtalamiz. Nega aynan bu ism tanlangan degan savol tug'ilishi tabiiy. Bunga bir nechta taxminiy sabablarni keltirish mumkin. Professor Ernest Begmatovning "O'zbek ismlari ma'nosi" kitobida Qaldirg'och ismiga "qaldirg'ochlar uchib kelganda tug'ilgan qiz yoki qoshlari qaldirg'och qanotidek ingichka, nozik qiz", deb ta'rif berilgan. Bu ism qiz bolalarga xuddi qaldirg'och qushi kabi bizga xushxabar keltirsin yoki keltirdi, xonadoningizga shodlik olib keldi, degan ma'noda ham qo'yilishi mumkin. Chunki Boybo'ring ham uzoq yillar farzandi bo'lmagan. Agar doston voqealariga nazar tashlasak, Qaldirg'och Alpomishga maqsadlari va burchlari sari harakat qilishiga turtki beruvchi obraz sifatida tasvirlangan. Ota-onasi qarshi bo'lganda ham, Qaldirg'och akasini or-nomusi uchun harakatga undaydi va o'zi ham yordam beradi. Bu o'rinlarda uning akasining baxtli bo'lishini xohlashimiz ko'rishimiz mumkin, ya'ni u akasiga yaxshilik sog'inyapti va uning nadomatga qolishini istamaydi:

"... Qalmoqlardan checham jabr ko'ribdi

Aka, aytgan so'zim og'ir olmagin,

Narmoda ishini bunda qilmagin"

Qumri – kaptarsimonlar turkumiga mansub, mayin ovozi va sadoqat timsoli sifatida mashhur bo'lgan chiroyli qush. O'zbek adabiyoti va xalq og'zaki ijodida ham ko'p tilga olinadi. O'zbek xalqida bu nom qiz bolalarga ism sifatida qo'yiladi. Bu ismning ma'nosi haqida Ernest Begmatov "O'zbek ismlari ma'nosi" kitobida shunday deydi: "Qumri-qumri (qush)dek yuvosh, beozor bola". Badiiy asarlarda ham bunday ismli qahramonlarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan, Sharof Boshbekov qalamiga mansub "Temir xotin" komediyasidagi Qumri obrazi haqida gapirish mumkin. Qumri-Qo'chqorning ayoli, 5-6 ta farzandning onasi, barcha turmush qiyinchiliklariga bardoshli ayol. U beozorligi, oilasiga sadoqati tufayli barcha kamchiliklarga ko'z yumib, oilasi uchun tinmay mehnat qiladigan sabrli o'zbek ayollarining timsoli sifatida gavdalantirilgan. Asar bilan tanishgan odam yozuvchi bu ismni bejiz tanlamaganini anglaydi.

Qo'chqor: Bolalaring qani?

Qumri: Maktabda. Chiqib, to'g'ri shu yoqqa kelishadi. Turobjoningiz ko'chaga chiqib olib, faqat sizni kutadi. Qolganlariyam "dadam-chi, dadam" deyverishib, odamni qon qivorishdi. Bolalarimga qarab turib, jahl qilmay men o'lay, dedim-u yugurib kelaverdim. Uch kun ming kun bo'p ketdi... (Yig'laydi)

Burgut-yirtqich qushlar ichida eng qudratli, baland parvoz qiluvchi, o'tkir ko'zli va qat'iyatli qush. U qadimdan kuch, erkinlik va g'urur timsoli bo'lgan.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

Shu o'rinda Odil Yoqubovning "Adolat manzili" asaridagi Suyun burgut obrazi e'tiborni tortadi. Gap shundaki, asardagi Suyun obrazi o'ta qat'iyatli, bir so'zli, g'ururli, kuchli, o'z qarorida sobitqadam kishi sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun u el orasida "Suyun burgut" laqabini olgan. Ayniqsa, tergov jarayonidagi so'zlaridan uning qat'iyatlilikiga guvoh bo'lish mumkin:

Mirjalolov toqati toq bo'lib:

– Eshitgan bo'lsang... gapir! Javob ber! – deb o'shqirdi.

Suyun burgut kishanli qo'llarini musht qilib tugdi.

– Avvalgi so'roqlarda nima degan bo'lsam shu! -dedi yuragidagi po'rtana bilan olishib.

– Men hech kimga pora bergan emasman, pora ham olgan emasman! Tamom-vassalom.

Mirjalolov stolni gursillatib mushtladi:

– Qirchang'i eshshak bo'p ket-e, dayus!

Suyun burgut asov otday dir-dir titrab:

– Haqorat qilma! -dedi sekin, ammo sekin eshitilgan bu bo'g'iq ovozdan qo'rqulik edi. – Qo'lingdan kelsa... anovi to'pponchang bilan shartta otib tashla! Ammo haqorat qilma insonni!

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ism insonning shaxsiyati, ma'naviy olami va ijtimoiy mavqeini ifodalovchi muhim nominativ birlik hisoblanadi. Ismlar nafaqat kishilarni bir-biridan farqlash vazifasini bajaradi, balki xalqning milliy qadriyatlari, dunyoqarashi, urf-odatlar va estetik qarashlarini ham o'zida mujassamlashtiradi. Shu sababli farzandga ism tanlash jarayoni har bir jamiyatda alohida ahamiyat kasb etib, ota-onalarning ezgu niyatlari, orzu-umidlari va kelajak haqidagi tasavvurlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Qush nomlari bilan bog'liq antroponimlar esa o'zining boy ramziy mazmuni bilan ajralib turadi. Bunday ismlar orqali insondagi go'zallik, erkinlik, jasorat, sadoqat, poklik, ziyraklik va donolik kabi ijobiy fazilatlar ifodalanadi. Ayrim hollarda esa qushlarning tabiatiga xos xususiyatlar obrazli tarzda inson xarakterining murakkab jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham qush nomlari asosidagi antroponimlar xalqning tabiatga bo'lgan munosabati, mifologik tasavvurlari va madaniy tajribasining mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Demak, qush nomlari bilan bog'liq antroponimlar til va adabiyotning o'zaro bog'liqligini namoyon etuvchi muhim lingvopoetik hodisa bo'lib, ular orqali xalqning ma'naviy merosi, madaniy qadriyatlari va badiiy tafakkuri yorqin ifodasini topadi. Ularni o'rganish antroponimika, lingvokulturologiya va badiiy matn tahlili sohalarida yangi ilmiy xulosalar chiqarish hamda milliy nomlash an'alarining mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR



O‘ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

1. Alpomish. Xalq og‘zaki dostoni. – Toshkent, 2018.
2. Begmatov E. O‘zbek ismlari ma’nosi. – Toshkent, 2007.
3. Yoqubov O. Adolat manzili. – Toshkent, 1996.
4. 9-sinf adabiyot darsligi. – Toshkent, 2014.

